



## BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA TA‘LIM VA TARBIYA SOHASIDAGI AMALGA OSHIRILGAN VA OSHIRILAYOTGAN ISLOHATLAR

*Sharipova G.S.*

*Alfraganus universiteti Pedagogika va psixologiya kafedrasi PhD, dotsenti*

**Tayanch so‘zlar:** pedagogik ta‘lim, tizim, ta‘lim, tarbiya, islohot, inson, shaxs, xalq, milliy, manfaat.

**Ключевые слова:** педагогическое образование, система, воспитание, обучение, реформа, народ, личность, выгода.

**Key words:** pedagogical education, system, education, training, reform, human, individual, people, national, interest.

Hozirgi kunda ta‘lim sohasidagi eng dolzarb muammolaridan biri sifatida oliy ta‘lim muassasasi talabalari orasida muloqot sohasidagi bilimlarining past darajada ekanligi va mustaqil fikrlarini erkin bayon qila olmaslik xususiyatlarini keltirishimiz mumkin. Talabalarda fanlarni o‘zaro uyg‘unlikda bog‘lay olmasa oladigan bilimlarida tarqoqlik yuzaga keladi va ular kasbiy faoliyatlarida bir qancha muammolarga duch kelishlari mumkin. Masalan, turli faoliyat jarayonlarini birligini ta‘minlay olmasligi, pedagog tarbiyachi jamoa a‘zolari orasida shaxsiy fikrlarini bayon eta olmasligi, tarbiyalanuvchilar va ularning ota-onalari bilan olib boriladigan pedagogik ishlarni samarli tashkil etishda boshqalarning yordami bilan ish yuritishi va hokozalardir. Bu kamchiliklar tarbiyachining ish faoliyatida yillar davomida, o‘zini-o‘zi rivojlantirishi natijasida yo‘qolib ijobiy tus olishi mumkin, ammo tarbiyachi anchagina vaqt yo‘qotadi. Bularning oldini olish maqsadida talabalar bilan aynan oliy ta‘lim muassasasida yanada chuqurroq shug‘ullanish lozim bo‘ladi. O‘qituvchilarning o‘z ustida ishlashi va faoliyatlariga pedagogik innovatsiyalarni tatbiq etishi ta‘lim sfati va samaradorligining asosi hisoblanadi. Buning uchun esa, dars mashg‘ulotlarida eng samarali natija beradigan treninglardan foydalanamiz.

Birinchi prezidentimiz Islom Karimovning «Barkamol avlod orzusi» va «Yuksak ma‘naviyat yengilmas kuch» asarlarida yosh avlodni tarbiyalashda «Kelajak bugundan boshlanadi. Hozir tarbiya masalasiga e‘tibor qilinmasa,



kelajak boy beriladi. Tarbiyadan hech narsani ayamaymiz. Ma'naviy va axloqiy poklanish, iymon insof, diyonat or nomus, mehr - oqibat va shu kabi chinakam insoniy fazilatlar o'z o'zidan kelmaydi. Hammasining zamirida tarbiya yotadi» degan fikrlarini takidlaganlar. Ta'lim tarbiya sohasidagi amalga oshirilayotgan islohatlar qisqa muddatli samaraga qaratilgan ish emas, balki bir necha yuz yilga ta'tiydigan o'zgarish bo'ldi desak xato bo'lmaydi. Bu birinchi prezidentimizning kelajak avlod haqida qayg'urib, «Yurtimizning barcha farzandlari - mening farzandlarim, ular bizlardan ko'ra kuchli, bilimli, va albatta baxtli bo'lishi shart» degan qaylusi zamirida donishmandlarcha siyosat yotganini ko'rsatadi. Ma'lumki pedagogika jamyatning rivojlanish qoidalariga tayangan holda taraqqiy etdi. Bugunda bu jarayon avj pallasiga kirgan. Modomiki zamon jadal sur'atlarda o'zgaryapdimi, demak, pedagogika ham o'zgarishga hamohang rivojlanadi.

Yurtimiz mustaqillikka erishgach, ta'lim va tarbiya tizimini tub isloh qilish maqsadida bir qator asoslarni ishlab chiqdi. Ta'lim to'g'risida»gi qonun, «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi», ning yaratilishi va amaliyotga tatbiq etilishi xalq ta'limi sohasida buyuk burilishlar yasadi. Milliy pedagogikamizning tez suratlarida taraqqiy etishi, ta'lim jarayonida, Al -Buxoriy, Abu Rayxon Beruniy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Abdulla Avloniy kabi donishmandu, adiblar merosidan foydalanish imkonini yaratdi. Ular ta'limdagi milliy xususiyatlarga alohida e'tibor berishgan. Mustaqillikka qadar ularning faoliyati yetarli darajada o'rganilmagan. Bir vaqtlar sharq pedagogikasi nihoyatda gullab yashnagan. Sharq daholari o'zlarining bebaho asarlariyu, ixtirolari bilan dunyo tarixida o'chmas iz qoldirgan.

Pedagog olim Abu Ali ibn Sino o'zining pedagogic qarashlarida oila muhitidagi tarbiyaga alohida e'tibor beradi. "Tadbiri manzil" asarida oila jamiyatining ajralmas qismi ekanini ta'kidlaydi. Oila boshlig'i bola tarbiyasida ham amaliy ham nazariy bilimlarga ega bo'lishi kerak deydi yana olim oila boshlig'ini bu sohada yetarli bilimi tajribasi bolmasau oila a'zolariga yaxshi tarbiya bera olmaydi. Tarbiya faqat oilaning o'ziga emas bali qo'shno oilalarga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi deydi o'z asarlarida. Ibn Sino yaxshi tarbiya oila farovonligi baxtining asosi, zamini, oila muhitida har qanday holatda bolaning barkamol qilib yetishtirish bolaning ota-onasining asosiy burchi, vazifasi ekanligini ta'kidlaydi. Ibn Sino bola tarbiyasida u bilan yakka holda suhbatda bo'lishbusulini tavsiya etadi. Su-hbat chog'ida xalqning hikmatli so'zlaridan, ertaklaridan misollar aytib mazmunli, axloq-odoblilik ma'nosini tushuntirmoq eng ma'qul usul. Bola aytilgan gaplarni e'tibor bilan tinglab, suhbatdan mamnunligi sezilganda uning faoliyatidagi yaxshi ishlar maqtovgga sazovor ekanligi, kamchiliklarni tuzatmog'i kerakchili va rag'batlantirilmog'i kerak deydi.

Pedagogika tarbiya haqidagi fan bo'lib, unda tarbiya mohiyati ochib beriladi. Qadimda inson tarbiyasiga oid fikrlar xalq maqollarida o'z aksini topgan. Ularda



rostgo'ylik ,ota onaga hurmat, ehtirom kabi fazilatlar tarannum etilgan». Alpomish, To'maris doston va ertaklarda, Vatanparvarlik, insonparvarlik tuyg'ulari ulug'lanadi. Ta'lim tarbiya masalasi har doim mutafakkir,yozuvchi va olimlarning xayolini band qilib kelgan. Ular o'zlarining barkamol inson tarbiyasi haqidagi yorqin mulohazalari bilan pedagogika fanining rivojiga katta ulush qo'shganlar. O'n sakkizinchi asrga kelib, O'rta Osiyoda ham pedagogik fikrlar taraqqiy eta boshladi. O'n to'qqizinchi asr boshlarida, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Saidahmad Siddiqiy kabi ma'rifat jonkuyarlari yetishib chiqqan. Ta'lim tarbiya masalasini yurt ko'zgusi deb bilgan jadidlarimiz yosh avlod tarbiyasiga alohida e'tibor berishgan Yurt kelajagini boshlang'ich ta'limdan qurishni maqsad qilgan jadidlarimiz, ko'plab yangi usul maktablarini tashkil etib, bu maktablar uchun o'zlari o'quv darsliklar yozganlar.

Tarbiya. Tarbiya - pedagogikadagi asosiy tushunchalardan biri hisoblanadi.»bu masala yoshlarimizning odob axloqi, yurish turishi, bir so'z bilan aytganda,dunyoqarashi bilan bog'liq».Bugun zamon shiddat bilan o'zgaryapdi, bu. o'zgarishlarni hammadan his etadigan albatta yoshlar.Mayli yoshlar o'z davrining talablari bilan uyg'un bo'lsin.Lekin ayni paytda o'zligini unutmasin. Biz kimmiz,qanday ulug' zotlarning avlodimiz,degan da'vat ularning qalbida doimo aks sado berib,undab tursin.Bunga nimani hisobidan erishamiz? Tarbiya tarbiya va faqat tarbiyaning hisobidan «, kabi so'zlari yosh avlod tarbiyasi hamisha muhim va dolzarb bo'lib kelishini anglatadi

Pedagogika adabiyotlarda «Tarbiya»atamasi keng va tor ma'nolarda qo'llaniladi.

Keng ma'noda, tarbiya inson shaxsini shakllantirishga,jamyat va ijtimoiy,madaniy, ma'rifiy hayotida faol ishtirok etishni bildirsa, Tor ma'noda tarbiya sohasining jismoniy rivoji, dunyoqarashi, ma'naviy axloqiy qiyofasi va estetik didini o'stirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatni angлата-di.Tarbiya har qanday jamiyat va har qanday mamlakat hayotida hal qiluvchi ahamiyatga ega.O'zbekiston Respublikasi prezidentining tashabbusi bilan 2020 yil «Pedagogikka»fani ishlab chiqildi.Bu borada Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 6 - iyuldagi 422- sonli « umumiy o'rta ta'lim muassasalarida « Tarbiya fanini amaliyotga joriy etish chora tadbirlari to'g'risida»gi qarori qabul qi-lindi.Tarbiya fani manbalari va ularni o'rganish,bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun zarurat hisoblanadi. Avesto kitobida yosh avlodni, ezgu niyat,ezgu fikrli va ezgu amalli shaxs sifatida voyaga yetkazish alohida ta'kidlangan.Shu sababli mazkur tamoyillar hozirgi zamon tarbiya jarayon-ida ham amaliyotga tadbiiq etilmoqda. Milliy g'oyamizning ikkinchi tamoyili ezgulikdir.Qur'oni Ka-rimda va hadisi shariflarda yoshlarni , e'tiqodli,yaxshilik yomonlikni farqlash ruhida tarbiyalash ta'limi berilgan.

Buning natijasida sakkizinchi asrdan to hozirgi davrgacha pedagogika fanimizda mazkur tamoyillar tarbiyaning asoslaridan bo'lib kelmoqda.Chex pedagogi Yan



Amos Komenskiy «Buyuk didaktikka» asarida yosh avlodni o'qitish vositasida tarbiyalashni asoslab bergan. Bunda o'quv fan-larini o'qitish jarayoni, shaxsning aqliy, axloqiy va estetik tuyg'ularini shakllantirishga, shaxsni hayotga tayyorlashga asosiy e'tiborni qaratdi. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari tarbiyasida metodlar-dan foydalanish muhim hisoblanadi.

Buning uchun quyidagilarga e'tibor berish maqsadga muvofiq.

- boshlang'ich sinf o'qituvchilari ning, jismoniy ,yosh, ruhiy holatlarini hisobga olish
- ta'lim jarayonida,tajribadan o'tgan metodlardan foydalanish
- Oddiylikdan murakkablikka qarab rivojlangan metodlarni tanlash.

Etibor berilsa boshlang'ich sinf o'qituvchilari tarbiyasida oddiy lekin , samara beradigan metodlarga tayanish kerak.

Tarbiya fani O'zbekiston ta'lim tizimi uchun mutloqo yangi hodisa hisoblanadi. Shu sababli bu fanni o'qitishda xorij tajribalaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Bir nechta xorij davlatlarin-ing tajribalarini ko'rib chiqamiz.

Buyuk Britaniya -tarbiya jarayoni psixologiya qonuniyatlariga asoslanadi. Tarbiyalanuvchiga olijanoblik ko'nikmasi shakllantirilishiga alohida e'tibor qaratildi.

Germaniya - asosiy e'tiborni idial g'oyalarga qaratadi. Germaniya fuqorolari ko'p hollarda haqgo'yligi bilan ajralib turadi.

Fransiya - tarbiya jarayonida shaxsning estetik didini o'stirishga etibor beriladi. Fransiyaning ta'lim tizimida vatanparvarlik g'oyasi ustuvor hisoblanadi.

Italiya - Ta'lim tizimida, avlodlar bilan g'ururlanish ruhi ustuvor qo'yiladi. Haqiqatan ham mazkur mamlakatdan yetishib chiqqan, Suqrot, Aflotun , Arastu,Siteronning insoniyat talimiga qilgan hissasi kattadir.

Saudiya Arabistoni - tarbiya jarayonida shaxsning e'tiqodli bo'lishga e'tibor qaratilgan.

O'rta Osiyo mutafakkirlaridan Abu Nasr Farobiy, Abu Ali Ibn Sinolar ham tarbiyaga tasir etadigan omillarga ahamiyat berib kelganlar. Farobiy inson kamolatida ta'lim tarbiyaning muhimligini ta'kidlab: «munosib inson bo'lish uchun odamda ikki imkoniyat: ta'lim va tarbiya olish imkoniyati bor . Ta'lim olish orqali nazariy kamolotga erishiladi,tarbiya esa kishilar bilan muloqotda axloqiy qa-dir qimmatini va amaliy faoliyatni yoritishga olib boradigan yo'ldir» deydi

Yurtimizda ta'lim tarbiya sifati jumladan boshlang'ich ta'limda o'qitish samaradorligini oshirish va o'quv uslubiy ta'minotini yuksaltirishga qaratilgan bir qator islohotlar natijasida bosh-lang'ich sinflarda integrativ yondashuv asosida tizimlashtirish, ta'lim texnologiyalarini qo'llash ta'lim mazmunini ilmiy tashkil etishga erishilmoqda. Hozirgi kunga kelib, fan texnika taraqqiyoti asrida ta'lim jarayonini ilg'or innovatsion g'oyalar asosida tashkil etishga undaydi. Bugungi kunda bosh-lang'ich ta'limda ko'plab metod va usullar yaratilib, innovatsion



va tarmoqli texnologiyalar keng qo'llanilmoqda. Bu esa ta'lim samaradorligini oshiribgina qolmay ,o'qituvchi va o'quvchining ko'zlagan maqsadga ertaroq erishishga yo'l ochadi.Ilm fan yutuqlarini amaliyotga qo'llash orqali mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan har tomonlama barkamol shaxsni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi .

Bugungi kunda ta'limda,»Aqliy hujm», «Fikrlar hujumi», «Tarmoqlar»,metodi,»Sinkvin», «Beshinchisi ortiqcha», «Bahs munozara «, «Rolli o'yin», «Kichik guruhlarda ishlash»,»Yumaloqlangan qor «, «Zigzag «, «Oxirgi so'zni men aytay « kabi zamonaviy texnologiyalar qo'llanilmoqda. Ta'lim jarayonida interfaol metodlar va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish kundan kun oshib bormoqda.Bunga sabab shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchilar fa-qat tayyor bilimlarni egallashga o'rgangan.Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish esa egal-layotgan bilimlarini o'zlari qidirib topish mustaqil o'rganish va fikrlash, tahlil qilish, yakuniy xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishga o'rgatadi.Bunday metodlardan yurtimizning chekka qishloq , tumanlarida ham keng qo'llanilsa maqsadga muvofiqdir.Dars jarayonida eng avvalo o'qituvchidan yuksak bilim talab etiladi.Jumlasi ravon, ta'sirchan, va chiroyli bo'lsa, o'quvchilarning darsga diqqati oshardi, mavzuni tushunish darajasi ortadi. Bugungi zamon o'qituchisidan ilg'or pedagogik mahorat va yangi texnologiyalarni bilishni talab etadi.

O'qituvchining ko'p qirrali va murakkab faoliyati zahirida yosh avlodni, odobli, axloqli qilib tarbiyalah, ularni bilimlar bilan qurollantirish kabi muhim vazifalar yotadi.Bularni amalga oshirishda esa o'qituvchining faoliyatiga bog'liq:bolalarni o'qitish,sinf va sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarni tashkil eta olish va ota onalar o'rtasida pedogagik targ'ibot ishlarini olib borish, bularning barchasiga o'qituchidan chuqur bilimga ega bolishni talab etadi.

O'zbekiston respublikasi oliy Ta'lim Konsepsiyasida o'qituchi mutaxassisining faoliyati quyidagicha belgilanadi.

«Mutaxasis malakasi chuqur, umumiy bilim, keng dunyoqarash,va kasb tayyorgarligi, kompyuter savodxonligi,o'z bilimini tezlik bilan yangilash va to'ldira olish qobiliyati singari omillar-dan tashkil topadi.Shular qatorida uning intizomi, mas'uliyat,ziyolilik, o'z ishiga, Vatan taraqqiyoti yo'lida ezgulik va adolatlilik va sadoqat tuyg'ularini ham tarbiyalash zarur.Bu vazifa ayniqsa bosh-lang'ich sinf o'qituvchisida ayniqsa mujassamlashgan bo'lishi lozim. Zero,maktabga ilk bor qadam qo'yg'an bola, dunyoning, hayotning,qonun qoidalarini,sir asrorlarini o'qituvchidan o'rganadi.O'qituvchi kasbiga xos bo'lgan muhim talablaridan biri - bolalarni sevish, ularni hayoti bi-lan qiziqish,har bir shaxsni hurmat qilishdan iboratdir.

Xullas pedagoglar bola tarbiyasida har xil o'zlari uchun oson va bola uchun foydali bo'lgan bir qancha yangicha to'xtam va fikrlarga kelishgan. Xususan



bola voyaga yetar ekan shakllanar, in-sonlar bilan jamiyat bilan muloqotga kirar ekan u shaxs sifatida o`sha jamiyat bilan muloqot qila ol-mog`i kerak. Ommaviy madaniyat ta`sirni axloqiy qarashlari o`z odabi bilan uyg`unlashtirishi kerak. O`z dunyo qarashini kengaytirmog`I yuqoridagi ibn Sino kabi yana bir qancha pedagoglar: A.Avloniy, at- Termiziy, Al-Buxoriy, Abdurahmon Jomiy kabi bola tarbiyasida muhim bo`lgan qa-rashlari bor insonlar asarlaridan mutolaa qilmog`lik joiz. Zero “Yoshlikda lingan ilm – toshga o`yilgan naqsh kabidir” deydi A.Navoiy ta`kidlaganiday ilm insonni g`oyatda yetuklikka undovchi bebaho boylik...

#### Adabiyotlar:

1. Yoldoshev Q., Yuldosheva M. Badiiy tahlil asoslari T Kamalak 2016 464 bet
2. Ziyokor ilmiy uslubiy ijtimoiy adabiy badiiy jurnal 2013 47 bet. Muallim qalb me`mori 2001 270-271 bet.
3. Do`stmuxammedova Shu A., Nishonova.Z.T. Jalilova.S.X. Karimova Sh.K. Alimbayeva Sh.T. Yosh va pedagogik psixologiya- T TDPU, 2004
4. Mirziyoyev .Shu.M Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta`minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi Toshkent O`zbekiston 2017 yil 48-bet.
5. Sharipova, G. S., & Madaminjonova, M. S. (2022, April). basic concept in clothes design. In International Scientific and Current Research Conferences (pp. 12-15).
6. Sharipova G.S. Ways and means of implementing the system of training teachers of technology in pedagogical universities //science, research, development philology. Internatsional conference-№5: 6.298-300.
7. Sadikovna, S. G., Kurbonova, B., Akhmedova, N., & Sulaymanova, S. (2020). Fundamentals of professionalism development on the example of practical exercises on forming the skills and skills of future teachers. PalArch's Journal of Archaeology of Egypt/Egyptology, 17(6), 8894-8903.
8. Sharipova, G. S., & Madaminjonova, M. S. (2022, April). Basic concept in clothes design. In International Scientific and Current Research Conferences (pp. 12-15).
9. Sharipova, G. S. (2022). Distribution and modernization of advanced pedagogical practices in the lesson process. current research journal of pedagogics, 3(06), 12-15.
10. Kamalova, G. A. (2022). Ways to ensure the active participation of parents in the educational process in preschool education. Oriental Journal of Education, 2(1), 8-15.
11. Sharipova G.S. Role national decorative elements in edicfting young generation //Eastern European Scientific journal. №3. – 2018. ISSN: 2199-7977. 6.90-94.

#### РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada boshlang`ich ta`limda ta`lim va tarbiya sohasidagi amalga oshirilgan va oshirilayotgan islohatlar, boshlang`ich ta`limda ta`lim va tarbiya usullari, milliy pedagogikamizning tez suratlarda taraqqiy etishida, bola ta`lim tarbiyasiga alohida e`tibor hamda ta`lim tarbiya masalasi boyicha mutafakkir, yozuvchi va olimlarning bizgacha qoldirgan merosi haqida bayon etilgan.

#### РЕЗЮМЕ

В данной статье описаны реформы, реализуемые и усиливающиеся в области образования и обучения в начальном образовании, методы обучения и обучения в начальном образовании, бурное развитие нашей национальной педагогики, особое внимание к образованию детей и наследие мыслителей, писателей и ученых. по вопросу образования и профессиональной подготовки.

#### SUMMARY

This article describes the reforms implemented and increasing in the field of education and training in primary education, methods of education and training in primary education, the rapid development of our national pedagogy, special attention to child education and the legacy of thinkers, writers and scientists on the issue of education and training.